

UCHINCHI RENESSANS-YANGI O'ZBEKISTON POYDEVORI.

Tashpulatova Gulrux Olimjon qizi.

Jizzax shahar 29-son DMTT tashkiloti uslubchisi.

“Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi

Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak!”

Sh.M. Mirziyoyev.

Bugungi kunda biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’limda yangi islohotlar qilish orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgilab olganmiz. Darhaqiqat, avvalo uchinchi Renessans haqida gapirishdan avval uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak.

“Renessans” so‘zi lug‘aviy fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Ushbu atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san’atda, ta’lim-tarbiyada, umuman olganda, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor “Renessans” so‘zi Yevropada o‘rta asrlar mutaassibligidan keyin 15-16 asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo‘llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o‘zbek tiliga Uyg‘onish davri deb o‘girilgan.

Tarix zarvaraqlariga nazar solsak, Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azal-azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me’moriy obidalari, nodir qo‘lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat berib turadi. Barchamizga ma’lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash’alasi to‘qqizinchi – o‘n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Mahmud Zamahshariy Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, singari o‘nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi. Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, “Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi”. Shuni yodda tutishimiz lozimki, Uchinchi Renessans to‘rtinchi sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtda kechadi. Shu boisdan, avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart iqtisodiyotni taqozo qiladi. O‘z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o‘tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, tomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi. Mazkur jarayon O‘zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta’minoti bo‘yicha istiqbolli aniq kompleks

dasturlar yangi Renessans g‘oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog‘lanishi muhim hisoblanadi. Ilmiy, ilmiy-texnologik ta‘minot taqozosidan kelib chiqqan xolda, ta‘lim-tarbiya sohasining barcha bo‘g‘inlari uzluksiz isloh etib borilishi muhimdir. Yuqorida keltirgan ikkala Renessans mustahkam ma‘naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik, adolatlilik, ilmga tashnalik va bag‘rikenglik asosida yuzaga kelgan.

Uchinchi Renessans g‘oyasini o‘qitish va keng jamoatchilik ongiga yetkazishda nihoyatda ehtiyotkor bo‘lish, me‘yordan oshirib yubormaslik talab etiladi. Uchinchi Renessans g‘oyasining oraliq bosqich vazifalari aniqlanishi kerak. Masalan, 2030-yilda, 2040 – 2050-yillarda biz aholi jon boshiga taxminan qancha yalpi ichki mahsulot ishlab chiqaramiz, jahon reytingida taxminan qanday o‘rinlarga ko‘tarilamiz. Ta‘lim, madaniyat, ilm-fan sohalarida qanday ko‘rsatkichlarni, marralarni zabt etamiz. Ular bo‘yicha mo‘ljallar belgilanishi lozim. Shunda mazkur g‘oyaning safarbarlik ta‘siri konkret va kuchli bo‘ladi. Ammo mo‘ljallar havoyi bo‘lmasligi, konkret raqamlardan tashkil topmasligi kerak. Yangi axborot kommunikativ texnologiyalar, nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, sun‘iy intellekt yaratish va shu kabi yo‘nalishlardagi vazifalar ham e‘tibordan chetda qolmasligi zarur. Har qanday buyuk rejalar, buyuk g‘oyalar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma‘naviy kamoloti bilan bevosita bog‘lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Aks holda u havoyi orzu havasligicha qolib ketadi. Kelajak insonini tarbiyalashda jamiyat taraqqiyoti tendensiyalarini va ayni paytda milliy ma‘naviyatimiz xususiyatlarini hisobga olmag‘imiz lozim.

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma‘naviy uyg‘onish jarayonlari milliy o‘zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa “Renessans” – uyg‘onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon. Bugungi O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg‘onish davriga – Birinchi (ma‘rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo‘lgan. Bu – jahon ilm-fanida o‘z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun ham “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari olg‘a qadam tashlashga undamoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayon men uchun islohotlarimizning eng katta natijasidir. Sababi, maqsadning aniqligi – harakatlar samarasini ta‘minlaydigan eng muhim mezondir. Agar biz bundan besh yil oldin qabul qilgan Harakatlar strategiyasining tub mazmun-mohiyatini muxtasar ifoda etadigan bo‘lsak, ushbu noyob hujjatda o‘z oldimizga Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk vazifalarni strategik maqsad qilib qo‘ygan edik. Ta‘kidlash joizki, Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, sub‘ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan ob‘ektiv zarurati hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekiston - demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlat sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, biz - O'zbekiston yoshlari, fuqarolari jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi shiddat bilan o'zgarib, hayotimizda yangicha munosabatlar, yangi imkoniyat va qadriyatlar shakllanayotganini hammadan ham ko'proq his etmoqdamiz. Ayniqsa, “inson huquq va erkinliklari”, “qonun ustuvorligi”, “ochiqlik va oshkoralik”, “so'z erkinligi”, “din va e'tiqod erkinligi”, “jamoatchilik nazorati”, “gender tenglik”, “xususiy mulk daxlsizligi”, “iqtisodiy faoliyat erkinligi” singari fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko'nikmalar hozirgi vaqtda real voqelikka aylanib bormoqda.

Eng asosiysi, “Harakatda - barakat” deganlaridek, biz eng qiyin bosqichdan o'tdik, ya'ni, yo'limizni aniq belgilab, katta ishlarni boshlamoqdamiz. Eng muhimi, keyingi yillarda bunday ulkan va murakkab vazifani amalga oshirish uchun yetarli siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-institutsional zamin yaratilayotgan bir vaqtda biz yoshlar olg'a qadam tashlagan xolda Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun munosin hissamizni qo'shishimiz darkor. Zero, Vatanimiz kelajagi- biz yoshlar qo'lida.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2020 yil 30 dekabr. 276. 2-bet.
 2. Renan “Dialogues fragments philosophiques” - “Falsafiy dialoglar va parchalar”. F., 1876, r. VIII-IX.
 3. Jahon falsafasi qomusi “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent-1916, 2-jild, 510-bet
- Internet manbalari.
1. www.google.uz
 2. www.pedagog.uz.